



Proceedings of International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences

Hosted online from Toronto, Canada.

Date: 5th December, 2022

ISSN: XXXX-XXXX

Website: econferenceseries.com

STRATEGIK BOSHQARUV HISOBIDA BYUDJETLASHTIRISH VA UNING KORXONA FAOLIYATINI REJALASHTIRISHDA TUTGAN O'RNI

Zaripova Sayohat Zafarovna

Toshkent Moliya Instituti

Buxgalteriya hisobi 2 kurs magistranti



Annotation

Ushbu maqolada daromad va xarajatlar budgetining shakllanishi tadqiq qilingan hamda ishlab chiqarish korxonasining daromad va xarajatlari budgetining namunasi tavsiya etilgan. Shuningdek, muallif tomonidan daromadlar va xarajatlar budgetini shakllantirish metodologiyasini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: boshqaruv hisobi, budget, budgetlashtirish, daromad va xarajatlar budgeti, moliyaviy natija, sotilgan mahsulot tannarxi.

KIRISH

Moliyaviy va iqtisodiy organlarning samarali faoliyati orqali sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilish, transport va boshqa tarmoqlarni barqaror rivojlantirish mumkin. Iqtisodiyot tarmoqlari korxonalarida qat'iy tejamkorlikka rioya qilish, mahsulot sifatini oshirib borishda faoliyatni puxta ishlab chiqilgan rejalar asosida to'g'ri tashkil qilish muhim o'rinn tutadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Iqtisodiy adabiyotlar tahlil qilinganida budget va budgetlashtirish, daromad va xarajatlar budgetiga doir umumiyl metodologik usullar yoritilganligini ko'rishimiz mumkin.

"Budget" so'zi qadimgi normand tilidan olingan bo'lib, "bourette" xalta, karmon, charm qop, pul to'la qop degan ma'nolarni anglatadi [2]. B.Nidlz, M.Pauers, S.Millz va G.Andersonlarning fikricha: "budget – kelgusidagi iqtisodiy operatsiyalar, xo'jalik faoliyati va natijalarni moliyaviy va nomoliyaviy ko'rsatkichlar ifodasida bashorat qiluvchi harakatlar rejasidir" [3]. Rossiyalik iqtisodchi olimlar Ye.A.Anankina, S.V.Danilochkin va N.G.Danilochkinlarning



Proceedings of International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences

Hosted online from Toronto, Canada.

Date: 5th December, 2022

ISSN: XXXX-XXXX

Website: econferenceseries.com

fikricha, “budjet – korxonaning yaxlit yoki alohidabo‘limlari faoliyatini miqdoriy eks etgan rejasidir” [4]. Respublikamiz iqtisodchi olimlari A.X.Pardaev va Z.A.Pardaevalarning fikricha, “budjet – bu rejalashtirilgan faoliyatni amalga oshirishdan oldin tuziladigan moliyaviy hujjat hisoblanadi” [5, 168].

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Jahon tajribasiga ko‘ra budgetlashtirish quyidagi ijobjiy jihatlarga ega:

- jamoaning ruhiyatini ko‘tarishga ijobjiy ta’sir ko‘rsatadi;
- korxona faoliyatini yaxlit holda muvofiqlashtirish imkonini beradi;
- budgetga o‘z vaqtida tuzatishlar kiritish imkoniyati mavjud;
- oldingi davrlarda tuzilgan budgetlarning ijobjiy jihatlarini olish imkoniyati mavjud;
- rejalashtirilgan va erishilgan natijalarini taqqoslash vositasi bo‘libxizmat qiladi.

Budgetlashtirishning salbiy jihatlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- Budgetlashtirish tiziminining murakkabligi va qimmatga tushishi;
- Budget bo‘yicha ma’lumotlarning har bir xodimga yetib bormasligi ularning ish natijalariga va ruhiyatiga ta’sir etmasligi;
- Budgetlashtirish tizimidagi arzimagan o‘zgartirish reja va hisobot ko‘rsatkichlarini qaytadan ko‘rib chiqish va budgetni boshqadan tuzishni taqozo etishi mumkin.

Umuman olganda budgetlashtirishning ahamiyati quyidagilarda ko‘rinadi: rejalashtirish va boshqaruv qarorlarini qabul qilish; kompaniya moliyaviy barqarorligining barcha jihatlarini baholash; korxona tashkiliy tuzilmalari tomonidan moliyaviy tartib-intizomni mustahkamlash; alohida xo‘jalik faoliyati va tarkibiy tuzilmalar faoliyati samaradorligini uzlusiz nazorat qilish; kompaniya moliyaviy holatidagi o‘zgarishlar ustidan doimiy nazorat qilish [4].

Budgetlarni tasniflashning asosiy muammolariga quyidagilarni kiritish mumkin: budget moddalari bo‘ysunuvchanligi belgilanmagan; budget nomlanishida yagona terminologiya mavjud emas; muayyan bir xil ko‘rsatkich turlicha talqin etiladi.

Korxona moliya-xo‘jalik faoliyatidan kelib chiqqan holda uning faoliyatini har tomonlama qamrab olgan, shuningdek yakuniy moliyaviy natijalarini tavsiflovchi budgetlarning kompleks tizimi samarali hisoblanadi. Bu kabi budgetlarni tuzish yagona axborot bazasini shakllantirishni taqozo etadi. Mazkur axborot bazasi har bir budget uchun hisob-kitob ko‘rsatkichlarini aniqlash, ularni hisob-kitob qilish, ma’lumotlar bazasini shakllantirish imkonini berishi kerak.



Hisob siyosatining asosiy qoidalarini tushunmaslik oqibatida menejerlar moliyaviy hisobot ma'lumotlarini, daromad va xarajatlar budgeti ma'lumotlarini talqin qiladi. Yana bir bor shuni ta'kidlash joizki, buxgalteriya hisobining asosiy tamoyillarini bilmaslik, samarasiz qarorlarni qabul qilinishiga va muammoli vaziyatlarning o'z vaqtida aniqlanmasligiga olib keladi.

Moliyaviy budgetlarning uchta asosiy turi mavjud: daromad va xarajatlar budgeti, pul mablag'lari harakati budgeti, balans moddalaribudgeti.

Moliyaviy budgetlar bilan birgalikda operatsion budgetlarning 10 dan ortiq turi ham mavjud. Operatsion budgetlar budgetlashtirish ob'ektlariga qarab turlicha bo'ladi (sotish budgeti, ishlab chiqarish budgeti, sotish xarajatlari budgeti va hokazo).

Demak, moliyaviy budgetlarning uchta asosiy turi bo'yicha mulkdorning aniq maqsadlari mavjud: biznes qancha foyda keltiradi, qancha miqdorda pul mablag'lari kirimi va chiqimi yuz beradi, biznesni yuritishda aktivlardan qay darajada samarali foydalilanadi.

XULOSA VA MUNOZARA

1. Budgetlashtirish moliyaviy rejorashtirish bo'lib, korxonani samarali boshqarish uchun zarurdir. Budgetlashtirish korxonaning joriy ko'rsatkichlarini rejorashtirish va istiqboldagi ko'rsatkichlarini bashoratqilish maqsadida turli xildagi budgetlarni ishlab chiqishni ko'zda tutadi.
2. Budgetlashtirish tarmoq xususiyatiga ega bo'lib, juda ko'p omillarga bog'liqdir. Shu boisdan budgetlashtirishning muayyan modelini nafaqat tanlash, balki uni korxona xususiyatiga moslashtirish ham zarurdir.
3. Budgetlashtirish turli xildagi budgetlarni yaxlit va o'zaro aloqadorlikda ishlab chiqilgandagina samarali hisoblanadi. Faqat shunday holatdagina korxonaning umumiyligi iqtisodiy holatini bilish mumkin bo'ladi.
4. Daromad va xarajatlar budgeti elementlari moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotda aks etgan ketma-ketlikda tuzilishi maqsadga muvofiqdir. Shu bilan birgalikda daromad va xarajatlar budgeti operativ budgetlar ma'lumotlari bilan chambarchas bog'liq bo'lishi kerak.

ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoevning mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma’ruza, 2017 yil 14 yanvar. - Toshkent: «O‘zbekiston», 2017. - 104 b.
2. <https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%91%D1%8E%D0%B4%D0%BA%D0%BD%D0%BE%D1%82>
3. Needles B.E., Powers M., Mills S.K., Anderson H.R. “Managerial accounting” 5thed. – Boston, N.-Y.: HoughtonMifflinCompany, 2019.
4. Anankina Ye.A., Danilochkin S.V., Danilochkin N.G. Kontrolling kak instrument upravleniya prepriyatiem. – M.: Audit, YuNITI, 2019. -297 s.
5. Pardayev A.X., Pardayeva Z.A. Boshqaruvin hisobi. –Toshkent, G`G`ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2014. 318 bet.
6. Vasilev A.A. Budjetirovanie deyatelnosti promyshlennix predpriyatiy. - Volgograd: VGTU, 2012. - 143 s.